

**TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI. JAMOA TARBIYA OBYEKTI VA SUBYEKTI SIFATIDA**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti  
Tarix fakulteti Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq  
ta'limi yo'nalishining 201-guruh talabalari  
Azimova Sevaraxon Tohirjon qizi  
Karimjonov Xushbaxt Mamurzoda*

**Anontatsiya:** Ushbu maqolada tarbiya jarayoni mohiyati, farzand tarbiyalashda ota-onalarning asosiy xatolari va ularning yechimi haqida fikr yuritilgan

**Annotation:** This article discusses the essence of the education process, the main mistakes of parents in raising a child and their solutions

**Аннотация:** В данной статье рассматривается сущность воспитательного процесса, основные ошибки родителей в воспитании детей и пути их решения.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, o'dob, axloq, axloqsizlik, ta'lim va tarbiya, iymoniy tarbiya, aqliy tarbiya, fazilat

**Keywords:** education, manners, morals, immorality, education and training, religious education, mental education, virtue

**Ключевые слова:** воспитание, манеры, мораль, безнравственность, образование и воспитание, религиозное образование, умственное воспитание, добродетель.

**Kirish.**

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu yoshlarimizning o'dob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim yoshlar. Mayli yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'in bo'lsin lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz qanday ulug' zotlarning avlodimiz degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz tarbiya, tarbiya, va faqat tarbiya hisobidan.

**(Shavkat Mirziyoyev)**

Tarbiya-aniq maqsadli hamda ijtimoiy tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga ularning ongini ma'naviy aqloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

Tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biri yoshlarning ongi, qalbiga milliy istiqbol g'oyalari sintirish, ularda milliy ong g'ururini shakllantirishdir. Hozirgi kunda tarbiya jarayonida yoshlarda o'zbek xalqiga mos ma'naviy-axloqiy sifatlarni

ayniqsa, iymon-e'tiqod, yangicha dunyoqarash, vatanga muhabbat, unga fidoyilik, vatanparvarlik, boshqa millat kishilariga hurmat, insonparvarlik, mehru-muhabbat, sharm-hayo, mehnatsevarlik, fazilatlarini tarbiyalash, ta'lim maskanlari jamoalarining o'quvchi va murabbiylarimizning muhim vazifasidir.

### **Asosiy qism**

Ta'lim tarbiya haqida so'z ketganda avvalo o'zbek mutaffakiri Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir degan fikri yodimizga kelaveradi.

Tarbiya so'zi arabcha "robba" so'zidan olingan bo'lib, o'stirish, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi degan ma'nolarni anglatadi.

### **FARZAND TARBIYALASHDA OTA-ONALARNING ASOSIY XATOLARI**

Ko'pgina ota-onalar farzandlarini tarbiyalashda xatolarga yo'l qo'yishadi. Ayblovlar va tahdidlar bu ota-onalar farzandlarini tarbiyalashda yo'l qo'yadigan odatiy xatolardir, qo'rqitish va shantaj qilish yo'li bilan bolalarni tarbiyalash notug'ri usuldir. Bu ota-onalarning farzand tarbiyalashda yo'l qo'yadigan eng asosiy xatolaridan biridir. "Uyalmaysizmi" iborasi bolani tushkunlikka tushiradi, o'zining qadrsizligi haqida o'ylashga majbur qiladi. o'z qadr qimmatini pasaytiradi va tashabbusini yo'q qiladi. Bolalar ko'pincha noto'g'ri hatti harakatlar qiladilar, ammo ular janjalga arzimaydi. Doimiy ayblovlar tufayli bola hayotga qiziqishni to'xtatadi, o'ziga ishonmaydigan bo'lib qoladi. Bolani yutuqlari uchun maqtash va rag'batlantirish, noto'g'ri hatti-harakatlari uchun tanbeh berish lekin haddan tashqari oshmaslikham kerak.

Muammolarni bolaga o'tkazish-har bir inson muammoga duch keladi, lekin ular bolalarni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lmasligi kerak. Ota-onalarning farzandiga bo'lgan munosabati kayfiyatiga bog'liq bo'lmasligi kerak. Bola "Men nima qilishim muhim emas, baribir onam buni sezmaydi" deb o'ylashi mumkin. 3 -yoshli bolalar har doim bizning hatti harakatlarimizdan ko'chiradilar. Siz og'il yoki qizingizga biror narsani taqiqlab qo'ya olmaysiz, nima uchun bunday qilmasligini tushuntirishingiz kerak.

Albatta ota-onalar farzandlarini yaxshi ko'radilar va ularga g'amxorlik qiladilar. Ammo bolalar katta bo'lganda ularni haddan tashqari himoya qilish ota-onalarning xatosi hisoblanadi. Siz farzandingizni mustaqil bo'lishga o'rgatishingiz kerak. Bola o'zi qaror qilsin va o'zi uchun biror nima qilsin, va agar u noto'g'ri qaror qabul qilsaham xatolaridan saboq olsin. Farzandingizni o'ziga ishonishiga yordam bering. Shaxsiy makon har qanday inson uchun muhimdir va sizning farzandingizham bundan mustasno emas. Albatta uning o'z sirlari bo'lishi mumkin.

Sevgi yetishmasligi-har kimga muhabbat kerak, ayniqsa bolalarga, siz doimo farzandingizni uni qanchalik sevingizni aytib berish, quchoqlab o'pib qo'yish uchun vaqt topishingiz kerak. Bu unga ishonch bag'ishlaydi, o'z navbatida boladan xuddi

shunday narsani talab qilishning hojati yo'q,ota-onani quchoqlab,sizlarni yaxshi kuraman deyish bu majburlash emas,balki yurakdan chiqishi kerak.

Farzand tarbiyasi-bir necha bosqichlar,jihatlardan iborat ekanligini aytishimiz lozim.

- 1.Iymoniy tarbiya
- 2.Axloqiy tarbiya
- 3.Jismoniy va badaniy tarbiya
- 4.Aqliy tarbiya

**IYMONIY TARBIYA**-farzand aqli shakllana boshlanishi bilan unga halol va haromni gunoh va savobni o'rgatish lozimdir.Payg'ambarimiz (A.S) yosh bolalaringizga birinchi bo'lib "La ilaha illolloh"kalimasini eshtiringlar"deganlar.Chaqaloqning o'ng qulog'iga azon,chap qulog'iga takbir aytish odati ham shu hadisni quvvatlaydi.

**AXLOQIY TARBIYA**-umumiy tarbiyadan so'ng farzandga chiroyli odob,go'zal axloq va fazilatlarni o'rgatish axloqiy tarbiyadir.Bir hadisda Payg'ambarimiz (A.S): "Men go'zal xulqlarni mukammal qilish uchun yuborilganman", deganlar.

**JISMONIY VA BADANIY TARBIYA**-ota-ona bola vujudining to'g'ri rivojlanishi,sog'ligi uchun masuldir.Bolani yetarli miqdorda va to'g'ri ovqatlantirish,uxlatish kabi ishlar badan tarbiyaga tegishlidir.Hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri bo'lmish giyohvand moddalari istemolidan ota-ona avvalo o'zi saqlanib,so'ngra farzandlariniham bundan qaytarishlari lozimdir.Chunki giyohvandlikning zararli oqibatlari hech kimga sir emas va giyohvandlik jismoniy va badaniy tarbiya asoslariga xilof.

**AQLIY TARBIYA**-bunda ota-ona bolalariga foydali ilmlarni,jamoat uchun kerakli kasb hunarlarni o'rgatishlari lozimdir.Ushbu farzand tarbiyasiga taaluqli fikrlarni har bir ota-ona birgalikda olib borsa kerakli natijaga erishishlari mumkin,aks holda farzand iymonsiz,axloqsiz va ma'naviyati qashshoq bo'lib shakllanishi mumkin.ammo hamma ish ham biz o'ylagandek bo'lavermaydi,ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdagi xatolari juda ko'p,shuning uchuikast yetkazmaslik uchun o'zimizni nazorat qilishimiz muhim ahamiyatga ega.

Prezidentiiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib "Bolalarimizni birovni qo'liga berib qo'ymasdan,ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim". Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish,ularning qalbiga quloq solish,dardini bilish,muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak deb ta'kidlab o'tganlar.

Tarbiya va ta'limni-bir biridan alohida ajratib bo'lmaydi,bu ikki jarayon o'zaro uyg'un,uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli,axloqiy fazilatlarga ega,yuksak ma'naviyatli,shu bilan birga bilimdon,zukko,ruhan va jismonan sog'lom,leng

dunyoqarash va taffakurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Buyuk vatandoshimiz Imom G'azzoliy aytganidek "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir". Bolalarning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa qabul qiladi, qayoqqa bo'kilsa egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyo oxiratida saodatga erishadi. Uning savogiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham she'rik bo'ladilar, agar yomonlokka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halik bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning bo'yniga tushadi. Akariyat ota-onalar "Hozir zamon juda qiyin bo'lyapti, tirikchilik uchun yugurmasang bo'lmasa, nima qilay bolalrim yeyman, ichaman deydi, kiyim kechagini aytmay sizmi, bizga oson emas..." ha endi o'zi yomon bo'lsa tarbiyasi bir gap bo'lar deyishadilar.

### **FARZAND TARBIYALASHDA OTA-ONALARGA MASLAHATLAR:**

Ko'pgina ota-onalar farzand tarbiyasidagi xatolarni qanday tuzatishni hayron bo'lishadi. Avvalo hamma ham xato qilishni unutmang. Va siz ham shunday siz. O'zingizni bola va ota-onangiz deb o'ylang. Va siz o'zingizning onangiz va otangiz tomonidan qilingan barcha keng tarqalgan xatolarni siz kichkinaligingizda tushungansiz.

Avvalo sabrli bo'ling. Axir, bola hamma joyda ishlaydigan kichik motordir. U kichkina, atrofidagi dunyo qanday ishlashini hali bilmaydi, hamma narsa unga qiziq. U hamma narsaga tegishni, teginishni, sinab ko'rishni xohlaydi. Unga buni amalga oshirish uchun imkoniyat bering. Uning savollariga sabr bilan javob bering.

Shuni ham yodda tutinki har bir inson muhabbat va mehrga, avvalambor bolaga muhtoj. Taktik aloqaga e'tibor bering. Uning qo'lini oling, quchoqlang, bola sizning tashvishingizni his qilishi kerak. U o'zini xavfsiz his qilishi kerak. Unga ko'proq Sevgi so'zlarini ayting. Uyda sizda ishonch, hurmat, va tushunish muhiti bo'lishi kerak. Faqatgina bu holatda siz bolangiz bilan to'g'ri munosabatlarni, o'rnatishingiz mumkin, kelajakda u sizning do'stingizga aylanadi.

Farzand tarbiyasini mukammal va sidqidildan ado etishning mukofoti ikki dunyoda ham ulug'dir. Mana shu mukofot barchamizga nasib etsin.

### **Xulosa**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki oilada farzand tarbiyasi-oila baxtli, farzandlarning tarbiyasi yetuk inson bo'lib yetishidagi ota-onaning sa'yi harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol topib boradi.

Farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa milliy fazilatlarga yo'g'rilgan milliy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Zero yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida esa milliy tarbiya katta ahamiyatga ega. Eng muhimi, farzandlarimiz tarbiyasiga e'tiborli bo'laylik, aynan shu mezon, bolalarimizni ma'nan ruxan sog'lom, o'z ota-bobolariga, tariximizga, vatanimizga, ona tilimizga, o'z milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qaraydigan barkamol bo'lib o'sishining asosidir.

#### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shayx Muhammad Sodiq Yusufning "Tarbiya va Xulq" haqidagi fikrlari.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhhammad Yusufning "Baxtiyor oila" kitobi
3. Luqmonxon Olimov "Farzand tarbiyasi ulkan masuliyat" maruzasi
4. Islom Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T:2008 yil
5. Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24-yilligiga bag'ishlagan tantanali ma'rosimdagi ma'ruzasi. T:2016 yil.